



**DUNYO TILSHUNOSLARI TALQINIDA
EVFEMIZMLAR KLASSIFIKATSIYASI**

Egamberdiyeva Shaxnoza Athamjonovna

ToshDO 'TAU Tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu tezisdagi evfemizm tushunchasining ingliz va o'zbek tillarida vujudga kelish tamoyillari, dunyo tilshunoslari tomonidan o'rganilish bosqichlari hamda guruhlanish mezonlari aniqlanadi. Tezisdagi asosiy e'tibor tilshunoslarning evfemizm hodisasini turli jihatlariga ko'ra kategoriyalarga ajratganligi tahliliga qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *evfemizm, guruhlash, ingliz tili, o'zbek tili, qiyoslash, tahlil*

**CLASSIFICATION OF EUPHEMISMS BASED ON THE
PERCEPTION OF WORLD LINGUISTS**

Abstract. *This thesis analyzes the term euphemisms, the principles of their origins in English and Uzbek languages, identifies the classification criteria and the stages of development by world linguists. This thesis mainly focuses on analyzing the categorization of euphemisms based on their various features.*

Key words: *euphemism, classification, English, Uzbek, comparing, analysis*

**КЛАССИФИКАЦИЯ ЭВФЕМИЗМОВ НА ОСНОВЕ
ВОСПРИЯТИЕ МИРОВЫХ ЛИНГВИСТОВ**

Аннотация. *В данной диссертации анализируются термины эвфемизмы, принципы их происхождения в английском и узбекском языках, выявляются критерии классификации и этапы развития мировыми лингвистами. Эта диссертация в основном посвящена анализу категоризации эвфемизмов на основе их различных особенностей.*

Ключевые слова: *эвфемизм, классификация, английский, узбекский, сравнение, анализ.*



Kirish: Bugungi globallashuv davrida ilm-fanga qaratilayotgan ulkan e'tibor tufayli ilmiy asos va yechimiga ega bo'lmagan tilshunoslik masalalari o'z tasdig'ini topishiga imkoniyatlar eshigi keng ochib berilmoqda, bu o'z navbatida lisoniy tadqiqotlar ko'lamini tilshunoslikning barcha yo'nalishlarida, jumladan morfologiya, leksikologiya, sintaksis, orfografiya, pragmatika va stilistika singari bo'limlarida kengayib borishiga xizmat qilmoqda. Ma'lumki, o'zbek tili lisoniy imkoniyatlari nutqiy voqelanishining o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan evfemizm va disfemizmlarda til va ma'naviyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu maqolaning maqsadi evfemizmlar dunyo tilshunoslari tomonidan o'rganilib, qanday guruhlariga sinflanligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-tarixiy metod, tahli va sintez qilish usullari qo'llaniladi. Bugungi kunga qadar turli makon va zamon tilshunoslari tomonidan evfemizm hodisasiga qaratilgan e'tibor natijasida ularning tadqiqotlaridan olingan natijalar atroflicha tahlil qilinadi.

Asosiy qism: Dunyo tilshunosligida evfemizm hodisasi XX asr boshlarida J. Vandries²¹, L.A. Buxalovskiy²² kabi tilshunoslari tomonidan turli adabiyotlarda qayd etilgan bo'lib, ularning fikr-mulohazalari zahirida evfemizm mohiyati tavsifining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu hodisani alohida millat va jins misolida (oltay ayollari nutqi) tadqiq etgan olimlar sifatida A.N. Samoylovich²³ va N.A. Baskakov²⁴ larni evfemizمنى etnik hodisa sifatida kuzatib, ko'pqirrali jihatlarini yoritishga harakat qilishganini kiritishimiz joizdir.

Bu hodisani turli tillar kesimida o'rgangan A.A. Akbarov²⁵ tojik tili, M.M. Xakimova²⁶ esa tojik va ingliz tili doirasidagi tabu va evfemizmlarni leksik-semantik analizini tadqiqot obyekti sifatida tanlab olishgan. Zamonaviy nemis tilida uchraydigan evfemizmlar hamda ularning semantik strukturasi xususida rus olimasi A.N. Prudivus²⁷, N.M. Berdova²⁸lar so'z yuritishgan. Ingliz tilida uchraydigan evfemizmlar doirasida Ye.A. Uvarova²⁹, frazeologik evfemizm turlari borasida T.A.

²¹ Вандриес Ж. Язык. – М. Учпедгиз 1937.

²² Булаховский Л. А. Введение в языкознание. Ч. II. 1953. С. 51.

²³ Самойлович А.Н. Женские слова у алтайских турков. // Язык и литература. – Л., 1929. Т III. – С.124

²⁴ Баскаков Н.А. Пережитки табу и тотемизма в языках народов Алтая. // Советская тюркология – Баку 1975. - №2 С. 3-9

²⁵ Akbarov A.A. Табу и эвфемизмы в Таджикском языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Худжанд: 2011.

²⁶ Хакимова М.М. Лексико-семантический анализ эвфемизмов в таджикском и английском языках. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Душанбе: 2018

²⁷ Прудивус А.Н. Эвфемизмы в современном немецком языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Санкт-Петербург: 1981

²⁸ Бердова Н.М. Эвфемизмы в современном немецком языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Киев: 1981

²⁹ Уварова Е.А. Системная семантика английского эвфемизма. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Москва: 2012



Kovaleva³⁰, Yu.S. Arsenteva³¹, evfemizm va disfemizmlarning pragmatik aspektini T.S. Bushueva³², bu hodisaning kognitiv asoslari yuzasidan Yu.V. Aleksikova³³lar tahlil qilishgan.

Evfemiya hodisasini sinflash orqali tadqiq etish tilshunoslik tarixida ko'plab uchraydi. Dunyo tilshunos olimlari evfemizmlarni o'rganish jarayonida ularni turli hil jihatlariga asoslanib, bir necha usullarda tasniflashgan. Bunday tasniflarni eng ko'zga tashlanadigan turi bu ma'no guruhlariga ajratishdir. R. Holder³⁴ evfemizmlarni leksik-semantik jihatdan oltmishta guruhga bo'lib o'rgangan va har bir guruh doirasiga kiradigan evfemizmlarni misollar tariqasida berib o'tgan. U o'zining evfemizmlar lug'atida badiiy asarlar hamda kundalik hayotda ko'p uchraydigan, turli xil mavzularga oid evfemik birliklarni ta'riflab berish bilan bir qatorda, ularning etimologiyasi, asl ma'nosi, metoforik tushunchasi, nutq jarayonida ishlatilish holatlarini misollar bilan ko'rsatib o'tgan. Uning ta'kidlashicha, ijtimoiy munosabatlar, irqchilik, kasallik nomlari, xayriya, farzand tug'ilishi, erkak-ayol muloqoti, iqtisodiy jarayon, noqonuniy moddalar iste'moli kabi mavzularga oid evfemik birliklar inglizxabon xalqlar nutqida ko'plab uchraydi.

A.M. Katsev evfemizmlarning denotativ mazmuni xilma-xilligiga ko'ra bir qator guruhlarga ajratgan evfemizmlarning mavzuvii jihatdan guruhlarga ajratilish holati tasvirlangan:

- 1) shaklga kirgan evfemizmlar;
- 2) tabiiy ravishda vujudga kelgan evfemizmlar;
- 3) uslubiy bo'yoq (ironiya yoki yumor) asosida tabiiy vujudga kelgan evfemizmlar.

Bunda turli tillarda evfemizmlarni mavjudligidan kelib chiqqan holda ularni asosiy kategoriyalarga ajratilgan. Bu sinflanish doirasiga turli tillarda uchraydigan evfemizmlar bir qator mavzular ostida birlashtirilgan. Guruhlanishning barchasi ularni o'rganishni osonlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshirilgan.

O'rganilayotgan hodisaning tasnifi o'zbek tilshunoslarining e'tiboridan ham chetda qolmadi. N.Ismatullayev evfemizmlarni 5 yirik guruhga ajratadi:

³⁰ Ковалева Т.А. Фразеологические эвфемизмы в современном английском языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Москва: 2008.

³¹ Арсентьева Ю.С. Фразеологизмы-эвфемизмы в английском и русском языках. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Казань: 2012

³² Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Москва: 2005

³³ Алексикова Ю.В. Когнитивные основы формирования эвфемизмов в современном английском языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Москва: 2010

³⁴ Holder R.W. How not to say what you mean. Oxford University Press, 2002



1) tabu bilan bog'liq evfemizmlar (zaharli hasharotlar nomi; yirtqich hayvonlar nomi; kasallik nomi; er va xotinning bir-birlari nomlarini aytmashliklari; xotin-qizlar tilida uchraydigan evfemizmlar);

2) bid'at, irim qilish bilan bog'liq evfemizmlar;

3) ma'nosi qo'pol, aytish noqulay bo'lgan so'z va iboralar o'rnida qo'llanadigan evfemizmlar;

4) nutqiy bezamalik, ko'tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo'llanadigan jargon evfemizmlar;

5) stilistik evfemizmlar.

Guruhlanishning yana bir boshqa turi rus tilshunosi R.A. Budagov tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u evfemizmlarni ikki yirik guruhga ajratadi: a) badiiy til evfemizmlari; b) turli jargon evfemizmlari. Badiiy til evfemizmlari, asosan, badiiy asarlar tarkibida personajlar nutqida, kishilar o'rtasidagi diplomatic, siyosiy nutq jarayonida nutqning salbiyligini kamaytirish, unga jilo berish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Turli jargon evfemizmlari esa xalq orasidagi ayrim guruhlar nutqida aynan ularning suhbatdoshigagina tushunarli bo'lgan jumlarlar shaklida uchrashi ham mumkin.

Evfemizmlar shakliy strukturasiga ko'ra ham guruhlariga ajratilishi mumkin. Bunda ularni so'z, so'z birikmasi, ibora va gap shaklidagi evfemalar tarzida farqlashimiz mumkin. Ingliz tilidagi *ugly* so'zi salbiy bo'yoqdorligi yuqori bo'lgani uchun *severe appearance deficits* evfemik birikmasi orqali ifodalanadi. Bu misoldagi birlikda sifat va ot so'z turkumi bog'lanishi asosida so'z birikmasi hosil qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa: Evfemizm hodisasiga doir ishlarni o'rganib chiqish davomida, har qanday nutq doirasida ularga duch kelishimiz mumkinligini aniqladik. Evfemik birliklarni tillararo o'rganish orqali ularni nutq jarayonida qo'llash yoki shaxslararo suhbatlarni tarjima qilish davomida ularga e'tiborliroq bo'lish, suhbatdan ko'zlangan ma'noni to'laqonli aks ettirish imkonini beradi va shu jihati bilan ahamiyatli hisoblanadi.

REFERENCES

1. Вандриес Ж. Язык. – М. Учпедгиз 1937
2. Булаховский Л. А. Введение в языкознание. Ч. II. 1953. С. 51
3. Самойлович А.Н. Женские слова у алтайских турков. // Язык и литература. – Л., 1929. Т III. – С.124



4. Баскаков Н.А. Пережитки табу и тотемизма в языках народов Алтая. // Советская тюркология – Баку 1975. - №2 С. 3-9
5. ¹ Акбаров А.А. Табу и эвфемизмы в Таджикском языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Худжанд: 2011.
6. ¹ Хакимова М.М. Лексико-семантический анализ эвфемизмов в таджикском и английском языках. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Душанбе: 2018
7. ¹ Прудывус А.Н. Эвфемизмы в современном немецком языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Санкт-Петербург: 1981
8. ¹ Бердова Н.М. Эвфемизмы в современном немецком языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Киев: 1981
9. ¹ Уварова Е.А. Системная семантика английского эвфемизма. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Москва: 2012
10. ¹ Ковалева Т.А. Фразеологические эвфемизмы в современном английском языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Москва: 2008.
11. ¹ Арсеньтева Ю.С. Фразеологизмы-эвфемизмы в английском и русском языках. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Казань: 2012
12. ¹ Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Москва: 2005
13. ¹ Алексикова Ю.В. Когнитивные основы формирования эвфемизмов в современном английском языке. Автореф. дисс... канд. фил. наук – Москва: 2010
14. ¹ Holder R.W. How not to say what you mean. Oxford University Press, 2002